

G.O. ERNAZAROVA

**YOSHLARNI MA'NAVIY
TARBIYALASHDA MUSIQIY
PEDAGOGIKANING
AHAMIYATI**



340.48
E-33

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

Eritazarova Gulnora Oblaqulovna

**YOSHLARNI MA'NAViy
TARBIYALASHDA MUSIQIY
PEDAGOGIKANING AHAMIYATI**

Monografiya

- 3872 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«ZEBO PRINT»
TOSHKENT - 2022

UO'K: 82(075.10)
KBK: 321ya52

Ernazarova Gulhora Oblagulovna

Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda musiqiy pedagogikaning ahamiyati [Matn]: monografiya. – Toshkent: «ZEBO PRINT», 2022. – 188 b.

Mazkur monografiyada maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqa mashg'ulotlarini, darslarini tashkil etish masalalari, musiqa o'qitishning nazariy asoslari, xorijiy mamlakatlardagi musiqa o'qitish tizimi, sinfdan tashqari musiqiy tarbiyani tashkil etish shaqi va yo'llari o'z ifodasini topgan.

Monografiya "Musiqiy ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda "Musiqqa madaniyati" o'quv fani o'qituvchilari, maktabgacha ta'lim muassasalardagi musiqa rahbarlari uchun mo'ljallangan.

Mulliflar:

G.O.Ernazarova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Umumiy pedagogika" kafedrası professori, p.f.d.

Taqrizchilar:

p.f.d.,prof. X.Ibraimov – Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori

p.f.d.,prof. Ximmataliyev D.O. – CDPUning "Pedagogika va menagement" kafedrası professori

ISBN 978-9943-8554-8-9

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB. MUSIQIY PEDAGOGIKANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	6
1.1 Musiqiy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari	6
1.2 Musiqiy pedagogikaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi	8
1.3 Xorijiy mamlakatlarda musiqiy ta'lim-tarbiya tizimi	10
1.4 Turkumiy munbalar sharti – oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirish omili sifatida	14
1.5 Sharoq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarorlar, g'oyalar	19
II BOB. MUSIQIY PEDAGOGIKA DARSLARI	19
O'QUV FANI SIFATIDA	28
2.1 «Musiqiy pedagogika» darslarining maqsad va vazifalari	28
2.2 «Musiqiy pedagogika» darslarining xususiyati va tuzilishi	29
III BOB. MUSIQQA O'QITUVCHISI VA UNGA BO'LGAN TALABLAR	33
3.1 Musiqqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi	33
3.2 Musiqqa o'qituvchisining ijodiy faoliyati	34
3.3 Musiqqa o'qituvchisining pedagogik mahorati	35
3.4. O'zbek xalq pedagogikasida musiqiy tarbiya	35
IV BOB. MUSIQQA O'QITISH METODLARI	40
4.1 Musiqqa o'qitishning asosiy metodlari	40
4.2 Musiqqa o'qitishning xususiy metodlari	42
V BOB. MUSIQQA IDROKI (MUSIQQA TINGLASH)	47
5.1 Musiqiy idrok – darsdagi yetakchi faoliyat turlaridan biri	47
5.2. O'quvchilarda musiqa idrokini rivojlantirish xususiyatlari	48
5.3. O'quvchilarda musiqa tinglash ko'nikmalarini shakllantirish metodlari	51
5.4. Darsda musiqiy asarni o'rganish bosqichlari	53
VI BOB. JAMOA BO'LIB KUYLASH – BOLALAR MUSIQQA FAOLIVATINING OMMAVIY SHAKLI	57
6.1. Faoliyatning umumiy tavsifi	57
6.2. Bolalar ovozi rivojlanishining yosh davrlari bo'yicha xususiyatlari	58

6.3. Bolalar ovozini asrash metodlari.....	61
6.4. O'quvchilarda vokal-xor malakalarni rivojlantirish.....	62
6.5. Ovoz sozlash mashqlari.....	66
6.6. Qo'shiq o'rgatish bosqichlari va metodlari.....	67
6.7. O'qituvchining qo'shiq ustida mustaqil ish rejasi.....	71
VII BOB. DARSDA MUSIQIY-RITMIK HARAKATLAR.....	73
7.1. Faoliyat tavsifi.....	73
7.2. Darsda musiqiy-ritmik faoliyatni tashkil etishga o'qituvchining tayyorgarligi.....	74
7.3. Darsda harakatlarni qo'llash uslublari.....	75
VIII-BOB. O'QUVCHILARDA MUSIQIY TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI.....	81
8.1. Ta'limda pedagogik innovatsiyalar.....	86
8.2. O'qituvchining axborot madaniyatini shakllantirish.....	94
IX-BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KASBIY-AXLOQIY ME'YORLARINI TARBIVIALASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI.....	100
9.1. Kasbiy axloq va uning tarixiy falsafiy negizlari.....	106
9.2. Sharq va G'arb allomalarning kasbiy-pedagogik axloq haqidagi qarashlari.....	112
X-BOB. ZAMONAVIY IJTIMOY - IQTISODIY RIVOJLANISH DAVRIDA O'QITUVCHILIK KASBIGA QUVILADIGAN TALABLAR.....	129
10.1. O'qituvchi shaxsi va unga qo'yiladigan talablar.....	129
10.2. Professiogramma-zamonaviy pedagog shaxsining modeli sifatida.....	133
X-BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KASBIY AXLOQNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	165
11.1. Kasbiy-pedagogik axloqni shakllantirishda tarbiya va o'yin texnologiyalari imkoniyatlari.....	165
11.2. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarda kasbiy axloq me'yorlarini shakllantirishga qaratilgan o'quv tarbiyaviy ishlar mazmuni.....	169
Xulosalar.....	180
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	184

KIRISH

Insonning shaxs sifatida shakllanishida musiqqa san'atining beqiyos ahamiyatini, uning ijobiyligini, ruhiyat bilan bog'liqligini o'tmish allo-hlari dolimo ta'kidlab kelganlar. O'zbek she'riyatining dahosi Alisher Navoiy o'z nasriy asarlarining birida bu haqda ajoyib fikrlarni bildiradi: «Sho'hratni oshiruvchi xonanda, g'ammi targatuvchi sozanda, inderning har ikkisiga hissiyoti kishilar va ahli dardlar jon fido qilalar. Ular moloyim tarona bilan kuylar ekanlar, eshituvchilarning naqd hayoti kuyga fido bo'lsa ne ajab? Axir, ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi».

Musiqqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, natosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi.

Musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari o'qituvchining jiddiy kasbiy tayyorgarligi, o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan doimiy e'tibori asosidagina yuzaga chiqadi. Shu bilan bir qatorda musiqqa o'qitishning samarasini belgilovchi muhim omillardan biri musiqiy metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog'liqligi darajasidir.

Musiqqa o'qitish metodikasi umumta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, qonuniyatlari, nazariy asoslari va uslubiy yo'nalishlarini belgilaydi.

I BOB. MUSIQIY PEDAGOGIKANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Musiqiy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari

Hozirgi kunda musiqiy pedagogika o'ziga xos jihatlari bilan shakllanib, takomillashib, rivojlanib kelmogda. Musiqiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishida bir qator olimlar ya'ni, B.B. Nadejdin, A.F. Kozlovskiy, G.A. Mushel, M. Ashraf, N.M. Yablonskiy, Ya.B. Pekker, Yu.G. Kon, M.N. Semenov, V.I. Knyazyatov, A.I. Petrovants, A. Ye. Morozov, U.R. Rizakulov, B.I. Zeydman, M.B. Reyson, A.M. Gekkelman, V.F. Pulatov, B.F. Gienko, X.F. Azimov, F. Sadikov, I. Radiabov, N. Xashimov, S. Qabulova, T. Alimatov, F.M. Karomatli, A.A. Adilov, R.D. Vil'danov, O. Yu. Yusupova va boshqalar o'z hissalari ni qo'shgan.

Musiqiy pedagogika – musiqqa san'ati vositasida bola shaxsini maqsadga yo'naltirgan holda musiqqa madaniyatini shakllantirish yo'llarini o'rganadi. Musiqqa o'qitish metodikasi didaktik va xususiy tamoyillar, usul, vosita va metodlar yordamida musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish hamda uning umumiy va xususiy vazifalarini hal etish yo'llarini belgilaydi.

Umumiy vazifalarga – musiqaning tarbiyaviy ta'sir kuchini ko'r-satish, o'quvchilarda musiqaga bo'lgan muhabbati, ehtiyojni o'stirish, musiqqa tinglash jarayonini tashkil etish, musiqqa madaniyatini shakllantirish va h.k. masalalar kiradi.

Xususiy vazifalarga esa qo'shiq o'rgatish usullari, ovoz diapozonini mustakamlash va kegaytirishga yordam beruvchi mashqlarni tavsiya etish, musiqqa idrokini, tinglash qobiliyatini rivojlantirish, musiqqa savodini egallash bosqichlarini belgilash va h.k. masalalar kiradi.

Musiqiy pedagogika pedagogika-psixologiya fan sohalari bilan uzviy bog'liqdir. Bu esa zamonaviy hayotimizda jamiyat oldida turgan vazifalar, umumta'lim maktablari va o'quvchilar oldiga qo'yiladigan talablar, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, maktabda musiqiy ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularning rivojlanish istiq-bolini belgilash imkoniyatini beradi.

Metodika o'z oldida turgan muammolarni hal etishda ham psixologiyaga tayanadi. Masalan, musiqqa idroki, ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bola ruhiyati, ongi, tafakkuri, xotirasi,

harvuri qonuniyatlari, uning ko'rinishlari, rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarga, musiqiy qobiliyat, inson faoliyati nima ekanligi kuzatildi tushunchalariga ega bo'lishi shart

Musiqqa o'qitish metodikasi umumiy ta'limning murakkab va ko'p-qirrali maqsadlarini hamda musiqqa ta'lim-tarbiyasi vazifalarini samarali hal etish uchun pedagogika va psixologiya fanlari bilan bir qatorda munozarimonlik ilmi va musiqqa ijrochiligi sohalari ham tayanadi.

Munozarimonlik ilmining musiqiy tarixiy-nazariy fanlar mazmuni o'quvchilarga musiqiy san'at xususiyatlarini yetkazish yo'llarini topishga, ularga hayotning musiqiy obrazlarda aks etishi, musiqiy ifoda vositalarining ahmiyatini tushuntirishda, musiqiy asarlarni haqiqiy tabiiy metodlari va texnologiyalarini aniqlashda yordam beradi. Musiqqa tarixi, asosiy yo'nalishlar, uslub va janrlarning rivojlanishi, yirik kompozitorlarning o'ziga xos ijod yo'li haqidagi bilimlar maktab o'quvchilarning musiqiy didini tarbiyalash, ularning dunegarashini kengaytirishga asos bo'ladi.

Har bir ijrochilik sinfi: yakkala kuylash, dirijyorlik, musiqqa asbobi bo'lg'uch muallimda o'quvchilar bilan ishlashda ularda ovozni saqlash va rivojlantirish, xor bilan ishlash musiqiy, asarni ifodali ijroda ko'rsata olish – o'quvchilarda musiqaga ijodkorlik hissi o'stirish malakalarini shakllantirish bilan metodikaga o'z hissasini qo'shadi.

Musiqqa metodikasi fanining asosiy tushunchalari "tarbiya-ta'lim" – o'rtovlanirish» va ularning o'zaro bog'liqligidir.

Tarbiya – pedagogikada tarbiya deganda bolalar, o'smirlar, yoshlarning jismoniy, ma'naviy kuchlarini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini shakllantirish tushuniladi.

Musiqqa hayotni aks ettirishi, hayot bilan bog'liqligi, uning musiqqa ijodkori, ijrochisi va tinglovchisining musiqani tarbiya vositasiga aylantiradi. Musiqiy tarbiya jarayonida o'quvchida axloqiy, aqliy, estetik jismoniy sifatlari tarkib topadi.

Ta'lim – bilimlar majmuasini o'zlashtirish jarayonidir. Xususan, musiqiy ta'lim o'quvchilarni turli musiqiy faoliyatlarga o'rgatish, musiqiy tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalar berish va bu bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishi jarayonidir.

Rivojlantirish – eng oddiy, soddagina musiqiylik ko'rinishlaridan murakkablariga qarab takomillashish. Boshqacha aytganda, musiqiy qobiliyatlarining o'sishi va shakllanishi jarayoni rivojlanishni hosil